

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.20.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

KALILAEVA BAXITLI RUSLANOVNA

**QORAQALPOG‘ISTON SHAROITIDA *ANACANTHOTERMES* AVLODI
TERMITLAR TARQALISHINING MONITORINGI VA ULARGA
QARSHI KURASHNING PROFILAKTIK CHORA-TADBIRLARI**

03.00.06 - Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Nukus-2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)****Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)****Kalilaeva Baxitli Ruslanovna**

Qoraqalpog‘iston sharoitida *Anacanthotermes* avlodi termitlar tarqalishining monitoringi va ularga qarshi kurashning profilaktik choratadbirlari..... 3

Калилаева Бахытлы Руслановна

Мониторинг распространения термитов рода *Anacanthotermes* в условиях Каракалпакстана и профилактические меры борьбы против них..... 21

Kalilaeva Baxitli Ruslanovna

Monitoring the spread of *Anacanthotermes* termites and preventive measures to control them in the conditions of Karakalpakstan..... 40

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 44

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.20.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

KALILAEVA BAXITLI RUSLANOVNA

**QORAQALPOG‘ISTON SHAROITIDA *ANACANTHOTERMES* AVLODI
TERMITLAR TARQALISHINING MONITORINGI VA ULARGA
QARSHI KURASHNING PROFILAKTIK CHORA-TADBIRLARI**

03.00.06 - Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Nukus-2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/B821 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Nukus davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.karsu.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Juginisov Tangirbergen Isaevich**
biologiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy oponentlar: **Medetov Maxsetbay Japakovich**
biologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Elmuratova Zulxumor Urazovna
biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Yetakchi tashkilot: **Xorazm Ma'mun akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.B.20.04 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «29» dekabr kuni soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1 uy. Universitet majlislari zali. Tel: (+99861) 223-60-78, faks (+99861) 223-60-78, E-mail: karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№157-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch. Abdirov ko'chasi, 1 uy, Tel: (+99861) 223-60-78, faks (+99861) 223-60-78.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «14» dekabr kuni tarqatildi.
(2023 yil «14» dekabrda № 4-raqamli reestr bayonnomasi)



M.A.Jumanov

Ilmiy kengash a'zosi beruvchi ilmiy kengash a'zosi, b.f.d., professor

M.K.Begjanov

Ilmiy kengash a'zosi beruvchi ilmiy kengash kotibi, b.f.d., dotsent

Ya.I.Ametov

Ilmiy kengash a'zosi beruvchi ilmiy kengash a'zosi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda global iqlim o'zgarishining kuchayishi, qurg'oqchilikning ortishi, urbanizatsiya jarayonlari, tabiiy landshaftlarning buzilishi ekotizimning muhim komponentlaridan bo'lgan hayvonot olami vakillarining turli xil ekologik yashash joylariga moslashishiga olib kelmoqda. Bu o'rinda, hasharotlar, jumladan termitlar yangi ekologik hududlarga kirib kelib, ular tomonidan keltiriladigan biozararlanish darajasi hajmining ortishiga sabab bo'lmoqda. Shunga ko'ra, tabiiy ekotizim va antropogen bosim yuqori bo'lgan hududlarda termitlar tarqalishini monitoring qilish, ekologiyasini asoslash va ularga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda aholi turar joylarini, bino-inshootlarni, tarixiy-madaniy obidalarni biozararlanishlardan himoya qilish va oldini olishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, tirik organizmlarning turli material va texnik qurilmalar bilan aloqasi o'rganildi, jumladan, qishloq xo'jaligi tarmoqlariga zarar keltiruvchi hasharot turlari inventarizatsiya qilindi, ularning lokal tarqalish xususiyatlari aniqlandi va qarshi kurash choralari takomillashtirildi. Ta'kidlash lozimki, kuchli o'zlashtirilgan va aholi yashaydigan hududlarda antropogen omillar ta'sirida entomofauna vakillarining keskin kamayib ketayotganligi bilan birgalikda, ularning ko'pgina zararli vakillari populyatsiyalarining yashash arealining kengayishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, arid hududlarda tarqalgan *Anacanthotermes* avlodiga mansub termitlarning binolarning yog'och qismlari, arxiv kutubxonalarini, tarixiy obidalar, matoli kiyim-kechaklar va agrotsenoz dalalari hamda yovvoyi o'simliklar olamining holatiga jiddiy xavf solayotganligini alohida ta'kidlash lozim. Shunga ko'ra, bino-inshootlar va ularning konstruktsiyalariga jiddiy zarar keltiruvchi ijtimoiy tabaqalashuvga ega zararli hasharotlarning tarqalish xususiyatlarini monitoring qilish, ularga qarshi samarador va bezarar kurash usullarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Hozirda respublikamizda aholi turar joylari, madaniy-tarixiy obidalar va ishlab chiqarish tarmoqlariga misli ko'rilmagan darajada ziyon yetkazayotgan termitlar tarqalishining oldini olish hamda ularga qarshi kurashni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, jumladan, termitlarga qarshi patogenli va zaharli em-xo'rak tayyorlashda ularning ozuqa tanlash xususiyatlari tadqiq etildi, termitlarning trofik aloqalari o'rganildi, ularga qarshi ekologik bezarar va samarador preparatlar ishlab chiqildi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ “ ... 79-maqсад: Aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish.” vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, Qoraqalpog'iston sharoitida *Anacanthotermes* avlodi termitlar zararining bugungi kundagi zamonaviy holati, tarqalish xususiyatlari, monitoring

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni.

darajasi va ularga qarshi takomillashtirilgan kurashning profilaktik chora-tadbirlarini amalga oshirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 yanvardagi PQ-2731-son “2017-2021 yillarda Orolbo‘yi mintaqasini rivojlantirish davlat dasturi to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 2 fevraldagi 27-son «Respublikada termitlarga qarshi kurashish ishlarini jadallashtirish va ularning zararini bartaraf qilish to‘g‘risida»gi qarori, 2017 yil 28 dekabrda 1027-son «Tabiiy, texnogen va ekologik xususiyatli favqulotda vaziyatlar monitoringi, axborot almashinuvi va prognozlash yagona tizimini tashkil qilish to‘g‘risida»gi qarori va 2019 yil 4 sentyabrda 725-sonli «Respublikada termitlarga qarshi kurashish ishlarini jadallashtirish va ularning zararini bartaraf qilish to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Termitlar muoammosi, ya‘ni ularning zarari, monitoring darajasi va ularga qarshi takomillashtirilgan kurashning profilaktik chora-tadbirlari bo‘yicha bir qator xorijlik olimlardan I.K. Grase (1989), M.S. Akhtar (1991), Wang Yi - an. (1992), Su, N-Y. va boshq. (1994), J.L. Clement va boshq. (1996), L.A. Weste va boshq. (2001), A.R. Lax (2005), L.K. Carta, Z.A. Handoo (2010), G. Durdiyeva (2017) va MDH mamlakatlari olimlaridan D.P. Jujikov (1984), A.O. Tashlieva (1984), V.G. Baeva va boshq. (1993), N.V. Belyaeva (2004) ilmiy-tadqiqot va amaliy ishlarini olib borgan.

Markaziy Osiyo tabiiy sharoitida va antropogen muhitlarida termitlarning o‘t o‘simliklariga, binolarga zarari, tarqalishi va ularga qarshi kurashning profilaktikasi bo‘yicha A.N. Luppova (1973), V.A. Lozinskiy (1973), K.Kakaliev (1983), A.G. Davletshina va boshq. (1986), O. Soyunov (1991), M G. Nepesova va boshq. (1992), Ch. Martius (1998), A.Sh. Xamraev va boshq. (2007), tadqiqot ishlarini amalga oshirgan.

O‘zbekiston sharoitida *Anacanthotermes* avlodiga mansub termitlar vakillarining tabiatdagi faoliyati, yog‘och buyumlariga zarari, tarqalish monitoringi va keyingi yillari ularga qarshi takomillashtirilgan kurash chora-tadbirlari bo‘yicha ma‘lumotlar R.A. Alimdjanov (1971), Ya. Veyzer, I.S. Velitskaya (1972), N.E. Ergashev (1997), T. Kulumbetova (1999), V.E. Xoxlacheva va boshq. (2006), B.R. Xolmatov (2011), N.I. Lebedeva va boshq. (2018), A.Sh. Xamraev va boshq. (2015), Z.A. Ganieva (2015, 2018), A.A. Nurjanov (2007, 2019), I.I. Abdullaev (2002, 2016), D.A. Azimov va boshq. (2019), Z.Sh. Matyakubov (2020), T.I. Juginisov (2009, 2021), G.S. Mirzaeva (2021), V.N. Axmedov (2022), M.B. Doschanova (2022) larning, tadqiqotlarida qayd etilgan.

Biroq, O‘zbekiston, jumladan, Qoraqalpog‘istonning tabiiy sharoitida va antropogen-transformatsiyalangan hududlarda *Anacanthotermes* avlodiga mansub termitlar vakillariga nisbatan profilaktik qarshi kurash chora-tadbirlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlardagi mavjud ma‘lumotlar Qoraqalpog‘istonning hozirgi tabiiy sharoitida tarqalgan termitlarning bugungi kundagi holatini to‘liq aks ettira olmaydi. Shu sababli ham mazkur hududdagi *Anacanthotermes* avlodiga mansub termitlar vakillarining zarari va tarqalishini nazorat qilish hamda ularga qarshi atrof-muhit uchun ekologik bezarar kurash usullarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan Oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qoraqalpoq davlat universiteti, “Ekologiya va tuproqshunoslik” kafedrasinig “Qoraqalpog‘iston sharoitida aholi uylarida va ma‘daniy-meros ob‘ektlarida termitlar zararini nazorat qilish” xo‘jalik shartnomasi (2018-2023) va Qoraqalpoq davlat universitetining QQDU-7/3 “Janubiy Orolbo‘yi sharoitida termitlar zararidan himoyalashda urbanlashgan hududlar (aholi uylari va ma‘daniy-meros ob‘ektlari) profilaktikasini ishlab chiqish” (05.09.2022-30.12.2022) amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Qoraqalpog‘iston sharoitida *Anacanthotermes* avlodi termitlar tarqalishining monitoringi va ularga qarshi kurashning profilaktik chora-tadbirlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Anacanthotermes avlodiga mansub termitlarning antropogen-transformatsiyalangan hududlarda tarqalishining monitoringi va zararkunandalik xususiyatlarini o‘rganish;

Anacanthotermes avlodi termitlarning ma‘daniy-meros ob‘ektlarida tarqalishini monitoring qilish va bioekologik xususiyatini tavsiflash;

tabiiy va antropogen-transformatsiyalangan hududlarda *Anacanthotermes* avlodiga mansub termitlarning umumiy va mavsumiy uyalar hosil qilish jarayonlarini tahlil qilish;

“Sun‘iy termit uyasi”da termitlarga qarshi biologik vosita, kimyoviy preparatlar va mahalliy xomashyolarning biologik samaradorligini aniqlash;

tabiiy sharoitda va antropogen-transformatsiyalangan hududlarda *Anacanthotermes* avlodiga mansub termitlar zararidan himoyalashning profilaktik kompleks chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob‘ekti sifatida Qoraqalpog‘iston sharoitidagi *Anacanthotermes* avlodi termitlari, biologik vosita, kimyoviy preparatlar va mahalliy xomashyolar olingan.

Tadqiqotning predmeti *Anacanthotermes* avlodi termitlarning tabiiy va antropogen-transformatsiyalangan hududlarda tarqalish monitoringi, bioekologik xususiyatlari, zarari va ularning zararini boshqarishda tabiiy-biologik hamda kimyoviy vositalarning samaradorligi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada entomologik, zoologik, ekologik, biometrik, statistik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Qoraqalpog‘istonning tabiiy va antropogen-transformatsiyalangan hududlarida *Anacanthotermes* avlodiga mansub termitlarning hozirgi zamonaviy tarqalish xususiyatlari tahlil qilingan hamda bioekologiyasi tavsiflangan;

Anacanthotermes avlodiga mansub termitlarning trofik aloqalariga bog‘liq ular tomonidan keltiriladigan zararli ta’sirlarining so‘ngi yillardagi holati ochib berilgan;

tabiiy sharoitda va antropogen-transformatsiyalangan hududlarda *Anacanthotermes* avlodiga mansub termitlar zarariga nisbatan entomopatogen mikroorganizm “*Beauveria tenella* zamburug‘ining VD-85 shtammi”, kimyoviy preparatlar “*Fipronil Ekstra* (20%) sus.em.”, *Sermit* (20%) sus.k., “*Piralaks-Lyuks*” hamda mahalliy xomashyo “*Oligomer superplastifikator*” qo‘llanilgan va biologik samaradorliklari aniqlangan;

Qoraqalpog‘iston tabiiy sharoitida termitlardan profilaktik himoyalanishning biologik, kimyoviy, fizik-mexanik usuli amalga oshirilgan va ushbu usullarning afzalliklari, biologik hamda xo‘jalik samaradorligi ilmiy asoslanib tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Qoraqalpog‘iston tabiiy sharoitida *Anacanthotermes* avlodiga mansub termitlarning mavsumiy tarqalish, oziqlanish jarayonlari tahlil qilingan va hududlar bo‘yicha zararkunandaning tarqalish monitoring darajasi bo‘yicha GAT xaritalari ishlab chiqilgan;

Qoraqalpog‘iston tabiiy sharoitida termitlardan profilaktik himoyalanishning biologik, kimyoviy, fizik-mexanik usuli amalga oshirilgan va binolar qurilishining yangi texnologiyasi bo‘yicha amaliy ishlarning tavsifi ishlab chiqilgan;

tabiiy sharoitda va antropogen-transformatsiyalangan hududlarda *Anacanthotermes* avlodiga mansub termitlariga nisbatan entomopatogen mikroorganizm “*Beauveria tenella* zamburug‘ining VD-85 shtammi” va kimyoviy preparatlar “*Fipronil Ekstra* (20%) sus.em.”, *Sermit* (20%) sus.k., “*Piralaks-Lyuks*” hamda mahalliy xomashyo “*Oligomer superplastifikator*” qo‘llanilgan, natijada 74,7%-89,8% biologik samaradorlikga erishilgan va shu asosida aholi uylarida, ma‘daniy-meros ob‘ektlarida qo‘llash texnologiyalari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi dissertatsiyada zoologik, umumiy entomologik, morfologik, fenologik usullardan foydalanilganligi va olingan ma‘lumotlar qiyosiy tahlil etilganligi, tajriba natijalarining nazariy ma‘lumotlarga mos kelishi, ularning etakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi, olingan ma‘lumotlarning zamonoviy dasturlar asosida (Biostat-3.8 (www.biostatsoft.com)) statistik tahlil qilinganligi, ilmiy hamjamiyat tomonidan davlat fundamental loyihalarini bajarish davomida tan olinganligi, amaliy natijalarni vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi hamda amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Qoraqalpog‘iston tabiiy sharoitida *Anacanthotermes* avlodiga mansub termitlarning bioekologik xususiyatlari, mavsumiy tarqalishi, monitoring

darajasi, zararkunandadan himoyalashning kompleks, profilaktik chora-tadbirlarning ishlab chiqilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Respublikamizning cho‘l hududlarida tarqalgan termitlar monitoringini aniqlash va ularga qarshi takomillashtirilgan kurashda biologik vosita, kimyoviy preparatlar va mahalliy xomashyolardan foydalanishda xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qoraqalpog‘iston sharoitida *Anacanthotermes* avlodi termitlar tarqalishining monitoringi va ularga qarshi kurashishning profilaktik chora-tadbirlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

Qoraqalpog‘iston hududida tarqalgan *Anacanthotermes* avlodiga mansub termitlarning dala sharoitida oziqlanishi, o‘simliklarni zararlashi va ularga qarshi kurashda Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervatida entomopatogen mikroorganizmlardan “*Beauveria tenella* zamburug‘ining VD-85 shtammi”, kimyoviy preparatlardan “*Fipronil Ekstra* (20%) sus.em.”, *Sermit* (20%) sus.k., “*Piralaks-Lyuks*”, hamda mahalliy xomashyolardan “*Oligomer superplastifikator*”ni qo‘llash bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi Vazirligi amaliyotiga joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi Vazirligining 2023 yil 12 sentyabr 01/18-710 son ma‘lumotnomasi). Natijada, Qoraqalpog‘iston sharoitida termitlar zarariga nisbatan 74,7%-89,8% biologik samaradorlikga erishilgan va termitlar zararini kamayishining imkonini bergan;

O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasining rivojlanishida madaniy-meros ob’ektlarining o‘rni beqiyos hisoblanadi. Shunga ko‘ra, Qoraqalpog‘iston hududida qad ko‘targan Chilpiqqal’a qo‘rg‘oni, Ichanqal’a, Shibily ota, Sulton-Uvays, Mizdahkan kompleksi, Qirq cho‘pon, Redjep xalifa, Shumanabiy maqbarasi, Gaurqal’a, Hazirati Dovud ota tarixiy ziyoratgohlari va Aqchaxonqal’a, Tashqirman, Tuproqqal’a, Qirqqiz qal’a, Ayoqqal’a 1-2, Yanboshqal’a, Qumbosganqal’alari kabi madaniy-meros ob’ektlarida 2018-2023 yillar davomida tadqiqot ishlari olib borildi, natijada binolarning 80%-90% atrofida termitlardan zararlanganligi aniqlandi. Jumladan, Kegayli tumanida joylashgan Ichanqa’la tarixiy ziyoratgohida termitlar zarariga qarshi kurashda kimyoviy preparat “*Sermit* (20%) sus. k.” aralashmasidagi zaharli em-xo‘raklarni qo‘llash bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘rmon xo‘jaligi qo‘mitasi amaliyotiga joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘rmon xo‘jaligi qo‘mitasining 2023 yil 11 sentyabr 1/386 son ma‘lumotnomasi). Natijada, termitlar zarariga nisbatan 82,9% biologik samaradorlikga erishilgan va termitlar zararini kamaytirish hamda populyatsiyalar sonini boshqarish imkonini bergan;

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop

etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shundan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to‘rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 108 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob‘ekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilgani, e‘lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Termitlar zarari va tarqalish monitoringining hozirgi holati”** deb nomlangan birinchi bobida Markaziy Osiyoda, MDH va xorijiy mamlakatlarda, shuningdek, O‘zbekiston, Qoraqalpog‘iston sharoitida *Anacanthotermes* avlodiga mansub termitlar tarqalishining monitoringi, dastlabki tarixiy tushunchalar, umumiy biologiyasi, hayotiy shakllari, ozuqaviy birligi, zararli xususiyatlari va ularga qarshi takomillashtirilgan kurashning bugungi kundagi kompleks profilaktik chora-tadbirlari bo‘yicha adabiy ma‘lumotlar tahlili keltirilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Tadqiqot o‘tkazilgan joyning tabiiy sharoiti, materiallari va metodlari”** deb nomlanib, unda tadqiqot ishi davomida tajribalar o‘tkazilgan hududlarning tabiiy fizik-geografik, landshaftlik holati va ilmiy tadqiqot ishi davomida yig‘ilgan tadqiqot materiallari hamda qo‘llanilgan metodlar haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot materiallari sifatida *Anacanthotermes* avlodiga mansub termitlarning umumiy biologik xususiyatlari o‘rganilgan, shuningdek, termitlarga takomillashtirilgan profilaktik kurash chora-tadbirlarining olib borilishida biologik vosita sifatida *Beauveria tenella* zamburug‘ining VD-85 shtammiga, kimyoviy preparatlar *“Fipronil Ekstra (20%) sus.em.”*, *Sermit (20%) sus. k.*, *“Piralaks-Lyuks”* va mahalliy xomashyo *“Oligomer superplastifikator”*ga to‘liq tavsiflar berilgan.

Tajriba ishlari Qoraqalpog‘iston sharoitida 2018-2023 yillar davomida asosan, tabiiy ekotizim sharoitida - Quyi Amudaryo del‘tasi bo‘ylab, Qizilqum, Orolqum, Nukusqum cho‘llaridan, Ustyurt tekisligi, Beruniy, Ellikqal‘a, To‘rtko‘l, Mo‘ynoq, Qo‘ng‘irot, Qonliko‘l, Sho‘manoy, Xo‘jayli, Nukus, Kegayli, Chimboy, Bo‘zatov, Qorao‘zak, Taxtako‘pir tumanlari fermer xo‘jaliklari agrotsenoz dalalarida monitoring ishlari va antropogen-transformatsiyalangan-Nukus shahri Taqirko‘l ovul fuqarolar yig‘ini, Taslaq 1-2, Jiyydeli baysin, Navruz OFY aholi uylarida, respublika madaniy meros ob‘ektlarini saqlash va ulardan foydalanish Davlat inspeksiyasi Beruniy tumani-Aqshaxanqal‘a, Tashqirmanqal‘a qal‘alari; Ellikqal‘a tumani-Tuproqqal‘a, Qirqqizqal‘a, Ayozaqal‘a-1-2 qal‘alari; To‘rtko‘l tumani-

Yanbashqal'a, Qumbosganqal'a qal'alari; Qorao'zak tumani- Jampiqqal'a, Sulton Uvays tog', Gaurqal'a qal'alari; Xo'jayli tumani - Mizdaxkan kompleksi; Kegayli-Shibily ota ziyoratgohi, Ichanqal'a hududlardan tadqiqot ishi materiallarini yig'ish ishlari va tajribalar olib borilgan. Shuningdek, tajriba o'rinlarining tabiiy hududlaridagi GAT xaritalari tuzilib, o'lchov birliklari belgilanilib o'rganilgan.

Tadqiqot jarayonida termitlarning zarari, tarqalish monitoringi va ularga qarshi kurashning profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishda Becker (1969), Veyzer (1972), Kakaliev (1977), Jujikov (1979), Amburgey (1981), Su, N - Y. (1986), Lakin (1990), Soyunov (1991), Belyaeva (2004) usullaridan foydalanildi.

Dissertatsiyaning **“Anacanthotermes avlodiga mansub termitlarning antropogen-transformatsiyalangan va tabiiy hududlarda tarqalish monitoringi”** deb nomlangan uchinchi bobida Qoraqalpog'iston sharoitida *Anacanthotermes* avlodiga mansub termitlarning tabiiy, urbanlashgan va madaniy-meros ob'ektlarida tarqalish monitoringi, dala sharoitida zararkunanda koloniyalarida uyalar hosil bo'lishi hamda zararkunundalik xususiyatlari o'rganilgan.

Qoraqalpog'iston sharoitida *Anacanthotermes* avlodiga mansub termitlardan zararlangan aholi xonadonlari, madaniy-meros, ijtimoiy-iqtisodiy ob'ektlari va dala yer maydonlarining 2018-2023 yillar bo'yicha solishtirmali monitoringi o'rganilganda, asosan antropogen-transformatsiyalangan hududlardan aholi xonadonlari, dala yer maydonlari (qabristonlar)da ko'plab termitlarning uchrashi kuzatildi. Ammo, 2018 yil bilan 2023 yilni bir qancha o'rinlarda solishtirganda ayrim yillari iqlimning noqulay kelganligi va termitlarga qarshi kurash ishlari olib borilganligi hisobiga zararkunandaning kamaygan holatlari ma'lum bo'ldi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida *Anacanthotermes* avlodiga mansub 2 ta tur: Turkiston va Katta Kaspiy orti (*Anacanthotermes turkestanicus*, *A.ahngerianus*) termitlarining zararli xususiyatlari bo'yicha monitoring ishlari barcha (16 ta) tumanlar kesimida o'rganildi. Bunda, 2018 yilda (5 yil ilgari) aholi uylarida Nukusda 1883, Beruniyda 134, Ellikqal'ada 585, Xo'jaylida 110 zararlangan bo'lsa, bu holat 2023 yilga kelib 1601, 111, 279, 87 aholi xonadonlarning termitlardan zararlanish darajasi ma'lum bo'ldi (1-jadval).

1-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasida termitlardan zararlangan aholi xonadonlari, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-meros ob'ektlari hamda dala yer maydonlarining monitoringi (2018-2023 yy.)

№	Tumanlar nomi	Zararlangan o'rinlar			
		Xonadonlar	Madaniy-meros ob'ektlari	Iqtisodiy ob'ektlar	Dala yer maydonlari (ga)
1	2	3	4	5	6
1	Nukus sh.	1883/1601	-/-	1/6	-/39,7
2	Nukus t.	14/17	1/-	-/-	-/1,5
3	Taxiatosh t.	-/55	-/-	-/-	-/5,0

4	Kegayli t.	-/4	2/1	-/-	-/0,7
5	Chimboy t.	-/-	-/-	-/-	-/-
6	Bo‘zatov t.	-/-	-/-	-/-	-/-
7	Qorao‘zak t.	19/54	2/1	-/-	-/27,0
8	Taxtako‘pir t.	77/97	-/-	2/5	60,3/59,4
9	Amudaryo t.	12/12	-/-	-/-	-/-
10	Beruniy t.	134/111	2/2	-/1	-/-
11	Ellikqal‘a t	585/279	4/3	-/-	-/-
12	To‘rtko‘l t.	364/473	2/2	2/4	-/5,0
13	Xo‘jayli t.	110/87	5/4	-/-	-/25,0
14	Sho‘manoy t.	-/-	-/-	-/-	-/-
15	Qonliko‘l t.	-/-	-/-	-/-	-/-
16	Qo‘ng‘irot t.	130/475	1/-	-/-	-/15,0
17	Mo‘ynoq t.	225/299	1/1	2/3	-/5,8
	Jami:	3553/3564	20/14	7/19	60,3/186,8

Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra faqat qolgan tumanlarda Nukus 14/17, Taxiatoş -/55, Kegayli -/4, Qorao‘zak 19/54, Taxtako‘pir 77/97, Amudaryo 12/12, To‘rtko‘l 364/473, Qo‘ng‘irot 130/475 va Mo‘ynoqda 225/299 bo‘lib, aholi xonadonlarining termitlardan zararlanish darajasining ancha yuqoriligi aniqlandi.

Bobning birinchi bo‘limida “*Anacanthotermes (Jacobs)* avlodiga mansub termitlar tarqalishining urbanlashgan o‘rinlaridagi monitoring darajasi va zararkunandalik xususiyatlari” bo‘yicha Qoraqalpog‘iston sharoitida deyarli barcha antropagen-transformatsiyalangan hududlarida, ya‘ni Nukus sh., Nukus t., Taxiatoş, Kegayli, Chimboy, Bo‘zatov, Qorao‘zak, Taxtako‘pir, Amudaryo, Beruniy, Ellikqal‘a, To‘rtko‘l, Xo‘jayli, Sho‘manoy, Qonliko‘l, Qo‘ng‘irot, Mo‘ynoq tumanlarda 2018-2023 yillar davomida 5 yillik natijalar asosida olib borildi. Tadqiqotlarda termitlarning zararkunandalik xususiyatlari bo‘yicha dastlabki monitoring ishlari uchun iqtisodiy ob‘ektlar o‘rganildi (2-jadval).

2-jadval

***Anacanthotermes (Jacobs)* avlodiga mansub termitlarning zararkunandalik xususiyati bo‘yicha iqtisodiy ob‘ektlarning monitoringi**

№	Tuman va shaharlar nomi	Ob‘ektlar nomi va turi	Manzili	Zararlanish darajasi, (%)
1	2	3	4	5
1	Nukus shahri	Qaratov OFY, 14 sonli maktab	Karvan saray k., raqamsiz uy	20%
		Qutli makon OFY, 54 sonli maktab	Qorao‘zak ko‘chasi, raqamsiz uy	20%
		Amanliq guzari OFY, 62 sonli maktab	M. Ulug‘bek k., 102 uy	30%
		Chimboy guzari OFY, 49	Keleshek avilda	35%

		sonli maktab	ko'chasi, 77 uy	
		Bestobe OFY, 30 sonli maktab	Shamshiraq ko'chasi, 12/1 uy	30%
		Jayxun OFY, 13 sonli maktab	Sanatoriya ko'chasi, raqamsiz uy	20%
2	To'rtko'l	YUk tarozi binosi	Otayurt OFY, 14 sonli mahalla	90%
		Agro To'rtko'l tekstil klaster MCHJ, binosi	Kaltaminor OFY, raqamsiz uy	80%
		49 sonli maktab	Kaltaminor OFY,	50%
		28 sonli maktab	Kaltaminor OFY,	40%
3	Taxtako'pir	Qostruba OFY binosi	Qostruba OFY, r/uy	80%
		Qarateren OFY, Qumetek FAP binosi	Qarateren OFY, raqamsiz uy	80%
4	Mo'ynoq	6 sonli o'rta maktab	Uchsoy OFY, r/uy	20%
		4 sonli o'rta maktab	-//-	35%
		Uchsoy OFY binosi	-//-	50%

Kuzatishlar jarayonida To'rtko'l tumani, Otayurt OFY da joylashgan "YUk tarozi binosi" 90%; Kaltaminor OFY, "Agro To'rtko'l tekstil" klaster MCHJ binosi" 80%; Taxtako'pir tumani, Qostruba OFY, "Qostruba OFY binosi"; Qarateren OFY, "Qumetek FAP binosi" 80% termitlardan jiddiy zararlanganligi ma'lum bo'ldi.

Tadqiqot ishlarimizda termitlar zararkunandalik xususiyatlarining so'ngi besh yillikdagi holatlari bo'yicha Nukus, Taxiatosh, Xo'jayli va Kegayli tumanlari urbanlashgan hududlarida ilmiy-amaliy nuqtai nazardan xatlovdan o'tkazish ishlari amalga oshirildi. Natijada, Nukus tumanida 17 ta xonadonda termitlar qayd etilib, zararkunandalik xususiyati o'rtacha 60-70% atrofida, Taxiatoshda 43 ta xonadon 70-80%, Xo'jaylida 87 ta xonadon 40-50% va Kegaylida 6 ta xonadonda 35-45% termitlardan zararlanganligi holatlari aniqlandi. Shuningdek, olingan ma'lumotlar asosida termitlarning ozuqa tashishining biologik xususiyatlarini o'rganish uchun Kegayli tumani Ichanqal'a OFY, Saymaxan ovulida 45% zararlangan 3 ta xonadonda (xonadon egalari-Nursultanov Dawletbay, Satbaeva Turg'anbiyke va Palwanov Qadirbay) tajriba sinov ishlari olib borildi. Bunda, uylarning pol-taxtalarining zararlanish holati kuzatildi, shuningdek uyning tashqi tamonlarida termit kamera yo'laklarining borligi aniqlandi. Tajriba uchun uylarning zararlanish darajasining umumiy holati hisobga olinib 1 xonadonga 5 dona yashil, 2 xonadonga 5 dona sariq, 3 xonadonga 5 qizil rangdagi buyoqlar shimdirilgan ozuqa em-xo'raqlari termit kamera yo'laklari bo'ylab loy-suvoqlari kam miqdorda ko'chirilib, o'rnatilib chiqildi (1-rasm, 3-jadval).



1-rasm. Bo‘yoqli ozuqa em-xo‘raklarning o‘rnatilishi va termitlarning jalb qilinishi

3-jadval

***Anacanthotermes* (Jacobs) avlodiga mansub termitlarning aholi yashash xonadonlarida bo‘yoqli ozuqa em-xo‘raklar bilan oziqlanishining biologik xususiyatlari**

№	Xonadonlar soni	Ozuqaning dastlabki og‘irligi (g)	So‘nggi loy-suvoqsiz og‘irligi (g)	Oziqlanishi, ozuqani tashib ketishi (%)
1	1 Xonadonda yashil bo‘yoqli ozuqa	29,4±0,4	3,3±0,6	88,7±0,5
		28,2±0,4	3,1±0,5	89,0±0,2
		27,3±0,5	4,0±0,6	85,3±0,4
		31,0±0,6	4,2±0,7	86,4±0,5
		27,4±0,3	2,8±0,5	89,7±0,3
2	2 Xonadonda sariq bo‘yoqli ozuqa	24,5±0,5	1,3±0,6	94,7±0,4
		27,2±0,4	1,1±0,5	95,9±0,2
		26,7±0,3	2,0±0,4	92,5±0,3
		28,1±0,3	2,2±0,4	91,9±0,9
		29,7±0,5	1,8±0,6	93,9±0,4
3	3 Xonadonda qizil bo‘yoqli ozuqa	26,2±0,4	5,3±0,5	79,7±0,4
		27,1±0,3	5,1±0,4	81,1±0,3
		28,3±0,5	5,8±0,6	79,5±0,4
		28,2±0,6	6,2±0,7	78,0±0,5
		31,4±0,5	6,5±0,7	79,2±0,4

Eslatma: (n=5, M±m: bo‘yoqli ozuqa em-xo‘raklarning dastlabki va so‘nggi loy-suvoqsiz og‘irliklariga nisbatan P<0,001)

Tajribaning dastlabki daqiqalaridan boshlab termitlar bo‘yoqli ozuqa em-xo‘raklarni uyalariga tashishi va kamera yo‘laklarining buzulgan loy-suvoqlar o‘rinlarini berkitishga kirishgani ma‘lum bo‘ldi. Tadqiqotlar jarayonida xonadonlarga barcha o‘rnatilgan termit ozuqa em-xo‘raklarining dastlabki va so‘ngi og‘irliklari o‘lchandi hamda umumiy ozuqani uyalariga tashib ketishi o‘rganildi. Bunda, 1 xonadonga o‘rnatilgan yashil bo‘yoqli oziqalarning dastlabki og‘irliklari $29,4\pm 0,4$; $28,2\pm 0,4$; $27,3\pm 0,5$; $31,0\pm 0,6$; $27,4\pm 0,3$ ni tashkil etdi. Oradan 30 kun o‘tkandan so‘ng ushbu ozuqa em-xo‘raklari yig‘ib olinib, loy-suvoqlardan tozalanib o‘lchov ishlari amalga oshirildi va natijada $3,3\pm 0,6$; $3,1\pm 0,5$; $4,0\pm 0,6$; $4,2\pm 0,7$; $2,8\pm 0,5$ ni ko‘rsatkichlarga ega bo‘lindi hamda termitlarning oziqaviy birligi 88,7%; 89,0%; 85,3%; 86,4%; 89,7%larni tashkil etdi. 2 xonadonda o‘rnatilgan sariq rangli bo‘yoqli em-xo‘raklarda bu ko‘rsatkichlar quyidagicha $24,5\pm 0,5$; $27,2\pm 0,4$; $26,7\pm 0,3$; $28,1\pm 0,3$; $29,7\pm 0,5$ / $1,3\pm 0,6$; $1,1\pm 0,5$; $2,0\pm 0,4$; $2,2\pm 0,4$; $1,8\pm 0,6$ qayd etildi, bunda oziqaviy birligi 94,7%; 95,9%; 92,5%; 91,9%; 93,9%ni bo‘lganligi ma‘lum bo‘ldi. 3 xonadonda qizil rangli bo‘yoqli oziqaviy em-xo‘raklardagi ko‘rsatkichlar $26,2\pm 0,4$; $27,1\pm 0,3$; $28,3\pm 0,5$; $28,2\pm 0,6$; $31,4\pm 0,5$ / $5,3\pm 0,5$; $5,1\pm 0,4$; $5,8\pm 0,6$; $6,2\pm 0,7$; $6,5\pm 0,7$ ni tashkil etib, termitlarning ozuqa em-xo‘raklarni uyasiga tashish jarayoni 79,7%; 81,1%; 79,5%; 78,0%; 79,2%ni quradi.

Natijalarga ko‘ra, *Anacanthotermes* avlodiga mansub termitlarning bo‘yoqli ozuqa em-xo‘raklarni xush ko‘rib oziqlanishi va ularning uyalariga tashishi har xil jarayonda yuz berishi kuzatildi, ya‘ni ular tamonidan ranglarning unchalik farqi yo‘qligi ma‘lum bo‘ldi, faqat hid sezish xususiyatlarning borligiga aniqlik kiritildi. Termitlar tamonidan tashib ketilgan ozuqa em-xo‘raklari asosida xonadondagi uylarning bir-biriga bog‘liqlik jarayoni ma‘lum bo‘ldi. Bunda, olib ketilgan ozuqa em-xo‘raklari birinchi uydan ikkinchi uyga o‘tilgani kuzatildi, demak, biologik xususiyati yuzasidan bitda xonadonda bitta termitlar koloniyasining faoliyat yuritishiga aniqlik kiritildi.

Bobning ikkinchi bo‘limida “***Anacanthotermes* (Jacobs) avlodiga mansub termitlarning madaniy-meros ob‘ektlarida tarqalish monitoringi**” o‘rganilganda *Anacanthotermes* (Jacobs) avlodiga mansub termitlarning oziqaviy birligi fasllarga nisbatan har xil bo‘lishi ma‘lum bo‘ldi, madaniy-meros ob‘ektlarida bahorda ko‘pchilik vaqtlari quyoshning chiqish tamonida, yozda, ichki qismida ustunlarda va kuzda devor oralarida zararkunandanani ozuqa to‘plashiga aniqlik kiritildi.

Bobning uchinchi bo‘limida “**Tabiiy sharoitda va antropogen-transformatsiyalangan hududlarda *Anacanthotermes* (Jacobs) avlodiga mansub termitlar koloniyasining uyalar hosil qilishi**” kuzatilganda zararkunanda hasharot yaxshi rivojlanishi uchun namligi 20-30% li qumli o‘rinlarda tanlashi, bitta koloniyada 15-18 uylarning hosil bo‘lishi, uyalar qurilishining yer ostida tartibsiz suv oqimi shaklidagi kamera yo‘laklarining bog‘liqligi va ular orasidagi bir-birlari bilan aloqalarining yuqoriligi ma‘lum bo‘ldi.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi “**Tabiiy sharoitda *Anacanthotermes* (Jacobson, 1904) avlodiga mansub termitlarga qarshi takomillashtirilgan**

kurashning profilaktik chora-tadbirlari” deb nomlangan bo‘lib, ushbu bobning birinchi bo‘limida “**“Sun’iy termit uyasi”da termitlarga qarshi biologik vosita, kimyoviy preparatlar va mahalliy xomashyolardan foydalanish**” bo‘yicha tajriba ishlari olib borilgan. Bunda, Kegayli tumani Shibiliy ota ziyoratgohidan va Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervatidan olib kelingan termit tabaqalari balandligi 10 sm bo‘lgan to‘rt burchakli, 15x20sm kattalikdagi 5 ta elim idishlarda laboratoriya sharoitida sun’iy termit uyasi yaratilib 1 oy davomida boqildi va shundan bittasi nazorat uchun tanlab olindi. Idishlarning har bittasi raqamlandi va termitlarga ozuqa sifatida suv, quritilgan kungaboqar o‘simligi poyasi aralashmasida birinchi idishda biologik vosita *Beauveria tenella* zamburug‘ining VD-85 shtammi ($1 \cdot 10^7$ titri), ikkinchi idishda kimyoviy preparatlardan “*Fipronil Ekstra* (20%) sus.em.”, uchinchi *Sermit* (20%) sus. k., to‘rtinchida “*Piralaks-Lyuks*” va beshinchi idishda mahalliy xomashyo “*Oligomer superplastifikator*” (0,003%) ishlatilib kuzatuv ishlari amalga oshirildi. Tajriba natijalariga ko‘ra, biologik vosita *Beauveria tenella* zamburug‘ining pivo qoldig‘ida $1 \cdot 10^7$ titrida o‘stirilgan VD-85 shtammi, kimyoviy preparatlardan “*Piralaks-Lyuks*” va mahalliy xomashyo hisoblangan “*Oligomer superplastifikator*” termitlarga qarshi profilaktik kurash ishlarining olib borilishida har qanday sharoitda mos kelishi muhim deb topildi.

Bobning ikkinchi bo‘limida “**Tabiiy sharoitda biologik vosita, kimyoviy preparat va mahalliy xomashyolar yordamida termitlarga qarshi takomillashtirilgan kurash choralari**” Kegayli tumani, Shibiliy ota ziyoratgohining dala maydonlarida laboratoriya tajribalariga asoslangan holda biologik vosita *Beauveria tenella* zamburug‘ining pivo qoldig‘ida $1 \cdot 10^7$ titrida o‘stirilgan VD-85 shtammi, kimyoviy preparatlardan “*Sermit* (20%) sus. k.”, “*Piralaks-Lyuks*” va mahalliy xomashyo hisoblangan “*Oligomer superplastifikator*” yordamida termitlarga qarshi takomillashtirilgan kurash choralari amalga oshirishning sinov ishlarining biologik samaradorliklari o‘rganildi. Tajribalar uchun, umumiy qayta variantlar asosida o‘n uchta 50x50 sm² kattalikdagi termit uyalari tanlanib, bittasi nazorat tajribasi uyasi etib belgilanib olindi. Tadqiqot ishlari 2020 yilning erta bohor faslida boshlanib, kech kuzigacha davom ettirilib o‘ch oylik natijalar qayd etildi va bugungi kungacha vaqti-vaqti bilan kuzatuv ishlarining davomiyligi ta‘minlangan. Dala sharoitidagi termitlarga nisbatan biologik vosita *Beauveria tenella* VD-85 shtammi, kimyoviy preparatlardan “*Sermit* (20%) sus. k.”, “*Piralaks-Lyuks*” va mahalliy xomashyo “*Oligomer superplastifikator*” aralashmasidagi qo‘llashda dastlab, zararkunandaning yashash uyalari tanlan olindi va ozuqalarini o‘rnatish ishlari olib borildi, shuningdek, uyalardagi termitlarning dastlabki sonlari tahminiy hisobga olindi (4-jadval).

Tabiiy sharoitda *Anacanthotermes* (Jacobs) avlodiga mansub Katta Kaspiy orti (*A.ahngerianus* Jacobs.) termitiga nisbatan biologik vosita *Beauveria tenella* VD-85 shtammi, kimyoviy preparatlardan “*Sermit* (20%) sus. k.”, “*Piralaks-Lyuks*” va mahalliy xomashyo “*Oligomer superplastifikator*” ning biologik samaradorligi

№	Biologik vosita, kimyoviy preparatlar va mahalliy xomashyo	Uyalardagi termitlar soni	Kunlar hisobida nobud bo‘lgan termitlar soni			Biologik samaradorlik (tirik termitlar soni va %)	
			30 kun	60 kun	90 kun		
1	<i>Beauveria tenella</i> VD-85 shtammi ($1 \cdot 10^7$)	1676,4±3,1 (100%)	260,3±1,1	811,7±1,8	1253,5±0,9	422,9±0,5	74,7%
2	“ <i>Sermit</i> (20%) sus. k.”	1805,9±4,2 (100%)	278,5±1,3	976,8±1,9	1497,1±0,8	308,8±0,1	82,9%
3	“ <i>Piralaks-Lyuks</i> ”	1876,2±3,1 (100%)	297,3±1,4	998,9±2,2	1686,5±0,9	189,7±0,1	89,8%
4	“ <i>Oligomer superplastifikator</i> ”	2005,2±3,5 (100%)	304,5±1,4	517,7±2,1	1602,7±0,8	402,5±0,2	79,9%
5	Nazorat	2201,4±4,2 (100%)	-	-	-	-	100%

Eslatma: (n=3, M±m: nazoratga nisbatan to‘g‘rililik P<0,01).

Kuzatuv natijalarida termitlarga nisbatan *Beauveria tenella* VD-85 shtammi ($1 \cdot 10^7$) aralashmasi ishlatilgan uyalarda tirik termitlar soni o'rtacha $1676,4 \pm 3,1$; (100%) bo'lganligi qayd etildi. Tajribada zamburug' ta'sirchangligini 30 kuni $260,3 \pm 1,1$; 60 kuni $811,7 \pm 1,8$; 90 kuni $1253,5 \pm 0,9$ termit tabaqalarning kunlar hisobida nobud bo'lganligi ma'lum bo'ldi, biologik samaradorlik tirik zararkunanda nisbatan $422,9 \pm 0,5 / 74,7\%$ ekanligi qayd etildi. Kimyoviy preparatlardan *Sermit* (20%) sus. k., "*Piralaks-Lyuks*" aralashmasidagi oзуqalarni sinash ishlarida umumiy o'rtacha termitlar soni 100% lik ko'rsatkichlarda $1805,9 \pm 4,2 / 1876,2 \pm 3,1$ tashkil etdi. Termitlarga nisbatan ta'sirchangligi kunlar hisobida 30 kuni *Sermit* (20%) sus. k., aralashmasidagi oзуqalarida da $278,5 \pm 1,3$; "*Piralaks-Lyuks*"da $297,3 \pm 1,4$; 60 kuni $976,8 \pm 1,9 / 998,9 \pm 2,2$; 90 kuni $1497,1 \pm 0,8 / 1686,5 \pm 0,9$ biroz o'skanligi ma'lum bo'lib, tirik termitlar soni $308,8 \pm 0,1 / 189,7 \pm 0,1$ tashkil etib, biologik samaradorlik 82,9%-89,8% ekanligi aniqlandi. "*Oligomer superplastifikator*" da uyadagi zararkunandaning sonining umumiy o'rtacha ko'rsatkichi $2005,2 \pm 3,5$ (100%) bo'lib, tajriba davomida nobud bo'lgan termitlar soni 30 kuni $304,5 \pm 1,4$; 60 kuni $517,7 \pm 2,1$; 90 kuni $1602,7 \pm 0,8$ ekanligi ma'lum bo'ldi, biologik samaradorlik $402,5 \pm 0,2 / 79,9\%$ tashkil etdi. Shuningdek, ilmiy ishlar natijalariga ko'ra termit uyalarini kovlash jarayonida "*Piralaks-Lyuks*" va "*Oligomer superplastifikator*" asosidagi zaharli em-xo'raklar zararkunanda tamonidan to'liq deyarli tashib ketilgan, ammo zaharli em-xo'raklar iste'mol qilinmasdan oзуqa yig'ish o'rinlarida saqlanishi kuzatildi. Bu holatda "*Piralaks-Lyuks*" va "*Oligomer superplastifikator*"ning uyadagi termitlarga nisbatan attraktantligi aniqlandi.

Bobning uchinchi bo'limida "*Anacanthotermes* (Jacobs, 1904) avlodiga mansub termitlar zararidan binolarni himoyalashning profilaktik choratadbirlari" haqida aytilgan bo'lib, bunda, termitlardan binolarni himoyalash bo'yicha 2019 yili 5 oy (aprel'-avgust) davomida Kegayli tumani, Ichan-qa'la tarixiy ziyoratgohida tajribada *Sermit* (20%) sus. k. (0,001-0,003-0,005%) kimyoviy preparatini sinash ishlari olib borilgan. Natijada, kimyoviy preparatning 0,001% li konsentratsiyada $39,2 \pm 0,7 / 56,4 \pm 0,9 / 11,2 \pm 0,3$ ko'rsatkichga ega bo'lib, umumiy oziqlanish hisobidagi biologik samaradorlik 72,5% ni tashkil etdi. Ushbu holatlar 0,003% li konsentratsiyada $41,2 \pm 0,7 / 54,5 \pm 0,8 / 3,2 \pm 0,2$; 92,1% 0,005% li konsentratsiyada $40,8 \pm 0,6 / 53,6 \pm 0,7 / 6,9 \pm 0,1$; 83,2%; ekanligi ma'lum bo'ldi. Nozarat variantida $38,9 \pm 0,5 / 55,3 \pm 0,8 / 1,2 \pm 0,2$; 96,9%, ya'ni umumiy oziqlanish ko'rsatkichi eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lganligi kuzatildi. Xulosa qilganimizda, tajriba davomida 0,003% konsentratsiyada 92,1% bo'lib termitlarning zaharli em-xo'raklar bilan oziqlanishi yuqori bo'lganligi, 0,005% konsentratsiya esa 83,2% bu ko'rsatkich past ekanligi aniqlandi, chunki termitlar kimyoviy preparatlarga ta'sirchangligi yuqori ekanligi ma'lum bo'ldi.

XULOSALAR

“Qoraqalpog‘iston sharoitida *Anacanthotermes* avlodiga mansub termitlar tarqalishining monitoringi va ularga qarshi kurashning profilaktik chora-tadbirlari” mavzusidagi falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Qoraqalpog‘iston sharoitida *Anacanthotermes* avlodiga mansub termitlarning 2 turi: Turkiston termiti (*Anacanthotermes turkestanicus*) va Katta Kaspiy orti termiti (*A.ahngerianus*)ning tarqalish monitoringi, zararli faoliyati aholi turar joylari, tarixiy-madaniy obidalar, agrotsenoz va tabiiy yer maydonlari kesimida tahlil qilindi.

2. *Anacanthotermes* avlodiga mansub termitlarning zarari, ozuqaviy birligi, laboratoriya sharoitida sun‘iy uyalar hosil qilish va tabiiy muhitlarda bitta koloniyadagi uyalarning bir-biri bilan bog‘liqlik darajalari o‘rganildi. Bunda, termitlar faolligini kuzatishda antropogen-transformatsiyalangan hududlardagi binolarda va tabiiy o‘choqlarida bo‘yoqli ozuqalardan foydalanildi hamda termitlarning bino atrofida, dala sharoitida uylariga ozuqa yig‘ishiga aniqlik kiritildi.

3. *Anacanthotermes* avlodiga mansub termitlarning urbanlashgan hududlar, aholi turar joylarining zararlanish darajalari va monitoringi holati shahar va tumanlar kesimida to‘la tahlil qilinib, Nukus shahrida 1601, Nukus tumanida 17, Taxiatoshda 55, Kegaylida 4, Qorao‘zakda 54, Taxtako‘pirda 97, Amudaryoda 12, Beruniyda 111, Ellikqal‘ada 279, To‘rtko‘lda 473, Xo‘jaylida 87, Qo‘ng‘irotda 475 va Mo‘ynoqda esa 299 ta xonadonning termitlar tamonidan jiddiy zararlanish holati kuzatildi va ular zarariga qarshi takomillashtirilgan kurash chora-tadbirlarini amalga oshirish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.

4. *Anacanthotermes* avlodiga mansub termitlarning zararkunandalik xususiyatlari bo‘yicha iqtisodiy va madaniy-meros ob‘ektlarda monitoring darajalari o‘rganildi. Natijada, Nukus shahrida 6, To‘rtko‘lda 4, Taxtako‘pirda 2, Mo‘ynoqda 3 ta iqtisodiy o‘rinlarning 20%-90% gacha termitlardan zararlangaligi qayd etildi.

5. Qoraqalpog‘iston sharoitida madaniy-meros ob‘ektlaridan Chilpiq qo‘rg‘oni, Ichanqal‘a, Shibiliy ota, Sulton-Uvays, Mizdahkan kompleksi, Qirq cho‘pon, Redjep xalifa, Shumanabiy maqbarasi, Gaurqal‘a, Hazirati Dovud ota tarixiy ziyoratgohlari va Aqshaxanqal‘a, Tashqirman, Tuproqqa‘la, Qirqqizqal‘a, Ayoqzal‘a 1-2, Yanboshqal‘a, Qumbosganqal‘alari 80%-90% atrofida termitlardan jiddiy zararlanish holatlari ma‘lum bo‘ldi va ularga qarshi kurash uchun profilaktik chora-tadbirlar amalga oshirilishi qayd etildi.

6. Tabiiy sharoitda dala yer maydonlari (qabristonlar)da termitlarga qarshi monitoring ishlari o‘tkazilganda Kegayli, Nukus, Taxiatosh, Taxtako‘pir, To‘rtko‘l va Mo‘ynoq tumanlarida umumiy hisobda 140,9 ga yer maydonlari (70%-95%) atrofida zararlanish holati aniqlandi.

7. Tadqiqotlar davomida tabiiy sharoitda termit uylaridagi tabaqalar soni, tarqalishi, ularning trofik aloqalariga va tuproq muhitining quriq hamda namlilik darajasiga bog‘liq holda tahlil qilindi. Bunda, Bestobe OFY agrotsenoz dalalari

atrofida $1596,4 \pm 3,1$; Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervatida $2027,4 \pm 3,5$; Shibiliy ota ziyoratgohi $4203,9 \pm 4,2$ termit tabaqalarining uchrashi qayd etildi.

8. *Anacanthotermes* avlodiga mansub termitlarga nisbatan laboratoriya sharoitida biologik vosita, kimyoviy preparatlar va mahalliy xomashyoning ta'sirchanligini o'rganganimizda *Beauveria tenella* VD-85 shtammi 79,8%, "Fipronil Ekstra (20%) sus.em." 71,2%, *Sermit* (20%) sus. k. 87,8%, "Piralaks-Lyuks" 96,5%, "Oligomer superplastifikator" 83,9% biologik samaradorliklarga erishildi.

9. Tabiiy sharoitda *Anacanthotermes* avlodiga mansub termitlarga nisbatan laboratoriya tajribalariga asoslangan holda 90 kun davomida olib borilgan dala tajriba ishlari natijalariga ko'ra *Beauveria tenella* VD-85 shtammi qo'llanilganda 74,7%, "Sermit (20%) sus. k." 82,9%, "Piralaks-Lyuks" 89,8% va "Oligomer superplastifikator" mahalliy xomashyosi qo'llanilganda esa 79,9% biologik samaradorlikga erishildi. Shuningdek, kimyoviy preparat "Piralaks-Lyuks" va mahalliy xomashyo "Oligomer superplastifikator" asosida ishlov berilgan termit uyalaridagi ijobiy natijalar bugungi kungacha to'liq saqlanib turishi qayd etildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.В.20.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**НУКУССКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
ИНСТИТУТ**

КАЛИЛАЕВА БАХЫТЛЫ РУСЛАНОВНА

**МОНИТОРИНГ РАСПРОСТРАНЕНИЯ ТЕРМИТОВ РОДА
ANACANTHOTERMES В УСЛОВИЯХ КАРАКАЛПАКСТАНА И
ПРОФИЛАКТИЧЕСКИЕ МЕРЫ БОРЬБЫ ПРОТИВ НИХ**

03.00.06 - Зоология

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Нукус - 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером В2022.4.PhD/В821.

Диссертация выполнена в Нукусский государственный педагогический институт.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском и английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.karsu.uz) и в Информационно-образовательном портале «Ziyonet». (<http://www.ziyonet.uz>).

Научный руководитель:

Жугинисов Тангирберген Исаевич
доктор биологических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Медетов Махсетбай Жапакович
доктор биологических наук, старший научный сотрудник

Элмуратова Зулхумор Уразовна
доктор философии (PhD) по биологическим наукам

Ведущая организация:

Хорезмская академия Маъмуна

Защита диссертации состоится «29» декабря 2023 г. в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.В.20.04 при Каракалпакском государственном университете. (Адрес: 230112, г. Нукус, ул. Ч.Абдирова, дом 1. Зал заседаний Каракалпакского государственного университета. Тел.: (+99861) 223-60-78, факс (+99861) 223-60-78, E-mail: karsu_info@edu.uz).

С диссертации можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского государственного университета (зарегистрировано за №157). Адрес: 230112, г. Нукус, ул. Ч.Абдирова, дом 1. Тел.: (+99861) 223-60-78, факс (+99861) 223-60-78.

Автореферат диссертации разослан «14» декабря 2023 года.
(реестр протокола рассылки № 4 от «14» декабря 2023 года)



М.А.Жуманов
Председатель Научного совета
по присуждению ученых
степеней, д.б.н., профессор

М.К.Бегжанов
научный секретарь Научного
совета по присуждению
ученым степеней, д.ф.б.н.,
доцент

Я.И.Аметов
Председатель
Семинара при Научном совете
по присуждению ученых
степеней, д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. На сегодняшний день в мире усиление глобального изменения климата, увеличение засушливых площадей, процессы урбанизации, нарушение природных ландшафтов привело к адаптации представителей животного мира к различным экологическим местам обитания, являющихся важными компонентами экосистемы. В этой связи, насекомые, в частности, термиты вторглись в новые экологические территории, становясь причиной увеличения масштабов наносимого ими биологического ущерба. Поэтому, мониторинг распространения термитов в районах с высоким природным экосистемным и антропогенным давлением, обоснование их экологии и разработка мер по борьбы с ними имеет важное научно-практическое значение.

В мире уделяется большое внимание защите и профилактике биоповреждений жилых домов, зданий, историко-культурных памятников. В связи с этим, изучена взаимосвязь живых организмов с различными материально-техническими устройствами, в том числе проводилась инвентаризация видов насекомых, наносящих вред сельскохозяйственным отраслям, определялись особенности их локального распространения и совершенствовались меры борьбы. Следует отметить, что на сильно освоенных и заселенных территориях под влиянием антропогенных факторов происходит резкое сокращение численности представителей энтомофауны, что в совокупности вызывает расширение популяций многих их вредных представителей. Особенно, следует отдельно отметить, что термиты рода *Anacanthothermes*, распространенные в засушливых районах, представляют серьезную угрозу для деревянных частей зданий, архивных библиотек, исторических памятников, тканевой одежды и полей агроценозов, а также для состояния дикорастущего растительного мира. Поэтому, мониторинг особенностей распространения вредных насекомых с социальной стратификацией, наносящих серьезный ущерб зданиям и их конструкциям, разработка эффективных и безвредных методов борьбы с ними имеет важное научно-практическое значение.

В настоящее время в нашей республике уделяется особое внимание предотвращению распространения термитов, наносящих беспрецедентный ущерб жилым помещениям, культурно-историческим памятникам и производственным отраслям, а также совершенствованию борьбы с ними. В этой связи, в частности, были исследованы особенности выбора кормов при приготовлении патогенных и ядовитых кормов для термитов, изучены трофические взаимоотношения термитов, разработаны экологически безопасные и эффективные препараты против них. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены задачи² “ ...цель 79:

